

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAQULOVA SHAXNOZA QUDRAT QIZI

**FRAZEO-SEMANTIK MAYDONDA “XURSANDCHILIK”
ETIMONLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA
O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Jumaqulova Shaxnoza Quдрat qizi

Frazeo-semantik maydonda “xursandchilik” etimonlarining pragmatik xususiyatlari
(ingliz va o‘zbek tillari misolida).....3

Жумакулова Шахноза Кудрат кизи

Прагматические особенности этимонов «радость» во фразеосемантическом
поле (на примере английского и узбекского языков).....27

Jumakulova Shakhnoza Kudrat kizi

Pragmatic features of the “joy” etymons in the phraseo-semantic field (in the
example of English and Uzbek languages).....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAQULOVA SHAXNOZA QUDRAT QIZI

**FRAZEO-SEMANTIK MAYDONDA “XURSANDCHILIK”
ETIMONLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA
O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3150 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Termiz davlat universiteti veb-sahifasida (www.tersu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xoshimxo'jayeva Moxirux Muzaffarovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy oponentlar: Mirsanov G'aybullay Qulmurodovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Asqarova Shaxnoza Kamoliddinovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


Yetakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/31.03.2021. Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "12" "dekabr" soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43. Tel.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).


Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (230 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43. Tel.: (376) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "7" "dekabr" da tarqatildi.
(2023 yil "7" "dekabr" dagi 47 - raqamli restr bayonnomasi)




B. Umurqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor


A.A. Eshmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


P.U. Bakirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida soʻzlarning ahamiyati va ularning dastlabki paydo boʻlish tarixi hamda taraqqiyoti masalasiga doimo alohida qiziqish bilan qaralgan. Hozirgi kunda qoʻllaniladigan soʻzlarning mohiyati ularning tarixi, rivojlanish davri va maʼnosi bilan qay darajada aloqadorligi tilshunoslarning eʼtiborini tortadi. Soʻzlarning etimologik tarixini oʻrganish tillarning rivojlanish xususiyatlarini ochib berishda hamda hozirgi lingvistik hodisalarning taraqqiyotini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ingliz va oʻzbek tillarida leksemalarni semantik maydonini aniqlash orqali ularning etimologiyasini oʻrganishda “xursandchilik” tushunchasini ifodalaydigan soʻzlarning tanlanishi, ularning frazeologik birliklar tarkibida oʻrganilishi soha rivojini taʼminlovchi omillardan biri hisoblanadi.

Dunyo ilm-fanida soʻzlarning kelib chiqish tili, shakllanishi, mazmuni va rivojlanish davriga oid izlanishlar yuzasidan turli tillar doirasida chogʻishtirma tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, tilshunoslikda “xursandchilik”ni ifodalovchi leksemalarning etimologik jihatidan ingliz va oʻzbek tillaridagi frazeologik birliklarda ahamiyati aniqlanishi va mazkur frazeologik birliklarning muloqot jarayonidagi nutqda qoʻllanilishi oʻrganilmaganligi tadqiqotning dolzarbligini koʻrsatadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning turli xil jabhalarda qoʻllanilishi tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar bajarilishi rivojiga oʻz hissasini qoʻshmoqda. “Taʼlim sifatini oshirish – Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona toʻgʻri yoʻlidir”¹, shunday ekan zamonaviy tilshunoslik sohasida mavjud boʻlgan muammolarni hal etish hamda innovatsion usullar orqali boyitish ahamiyatli sanaladi. Shu nuqtai nazardan turli tizimli tillarda frazeologik birliklar orqali “xursandchilik” tushunchasini anglatuvchi leksemalar qoʻllanilishi va ularning etimologiyasi oʻrganilishi doirasida semantik asosda tizimli tadqiq etilishi tilshunoslikda frazeologiya sohasida hamda frazeo-semantik maydonda keng qamrovli izlanishlar olib borilishi orqali pragmatik xususiyatlarini asoslash masalaning amaliy oʻrganishni yuzaga keltiradi. Mazkur frazeologik birliklarning nutqda qoʻllanilishi, ularda ishtirok etgan “xursandchilik”ni anglatuvchi etimonlarning pragmatik xususiyatlari tahlil etilishi tarjimashunoslik, pragmatika va leksikologiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2022 йил 21 декабрь. – Б.1.

amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlarga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Tilshunoslikda etimologiya sohasi, etimon tushunchasini oʻrganish hamda ularning nazariy asoslari xorijiy va oʻzbek olimlari, xususan, L.T.Leushina, Ch.M.Simon, M.T.Oneill, E.Buchi, S.N.Dvorkin, D.D.Bello, G.Klauson, B.T.Ayalev, M.V.Ilin, Y.V.Kapranov, E.V.Sevortyan, L.P.Dronova, U.A.Karpenko, J.J.Varbot, M.M.Makovskiy, G.N.Ivanova-Lukyanova, N.B.Sharipova, J.Boʻronov, T.J.Enazarov, M.T.Irisqulov, Sh.Rahmatullayev, A.A.Abduazizov, S.A.Karimov, Z.T.Xolmanova, H.Jamolxonov² tadqiqotlarida aks etgan.

Frazeologik birliklar, frazeo-semantik maydon va maydon tushunchasiga oid ilmiy izlanishlar L.P.Smit, V.V.Vinogradov, T.I.Yakunina, A.V.Kunin, G.S.Mullagayanova, A.A.Ufimseva, I.I.Sinelnikova, S.A.Androsova, N.M.Shanskiy, L.B.Yabjanova, S.Y.Chernobay, T.A.Fukova, N.N.Amosova, I.V.Sherstyaniy, V.V.Bikonya, Y.A.Monastirskaya, Z.D.Popova, I.A.Sternin, M.M.Mirtojdiyev, A.A.Abduazizov, Sh.Rahmatullayev, A.E.Mamatov, H.Jamolxonov, B.I.Boltayeva³ kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan.

² Liliya T. Leushina. Etymological Explanations in the Ovid's "Fast" (the Origin of the Name of the Roman Holiday Agonalia) // *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 2015. – P.296-300; Christopher Mark Simon. *Ancient Etymology and the Early History of Rome: a dissertation for the degree of doctor of philosophy.* – Yale University, 2014. – 270 p.; Michael T. O'neill. *Etymology: Its meaning in language study before 1900 and the English tradition: a dissertation for the degree of doctor of philosophy.* – University of Florida, 1976. – 208 p.; Éva Buchi and Steven N. Dworkin. *Etymology in Romance*, – July 29, 2019. – 35 p. – [Electronic resource]. – URL: https://www.academia.edu/41351251/Etymology_in_Romance; Davide Del Bello. *Etymo-logica: Notes toward a history of allegorical etymology: a dissertation for the degree doctor of philosophy.* – Northern Illinois university, 1998. – 204 p.; Gerald Clauson. *An etymological dictionary of pre-thirteenth-century Turkish.* – Great Britain: Oxford University Press, 1972. – 989 p.; Bezza Tesfaw Ayalew. *The submorphemic structure of Amharic: Toward a phonosemantic analysis: a dissertation for the degree of doctor of philosophy.* – Urbana: Illinois university, 2013. – 162 p.; Ильин М.В. *Образ: Исходные когнитивные схемы и этимоны // МЕТОД: Московский ежегодник трудов из обществоведческих дисциплин.* – 2018. – №8. – С.12-14; Капранов Я.В. *Витлумачення терміна “етимон” як знакового утворення правового стану // Серія “Філологічна”.* – 2016. – Випуск 61. – С.65-68; Севортян Э.В. *Этимологический словарь тюркских языков.* – Москва: Языки русской культуры, 2000. – 476 с.; Дронова Л.П. *Методика диахронического исследования и когнитивный подход к языку // Вестник Томского государственного университета. Филология.* – 2013. – №2 (22). – С.22-39; Карпенко У.А. *Трансляция смысла и трансформация значений первокорня: монография.* – Киев: Освита Украины, 2013. – 496 с.; Варбот Ж.Ж. *Этимология // Большая российская энциклопедия. Том 35.* – Москва, 2017. – С.489-490; Маковский М.М. *Историко-этимологический словарь современного Английского языка.* – Москва: Издательский дом «Диалог», 2000. – 419 с.; Иванова-Лукьянова Г.Н. *Энергемы слова в учении А.Ф.Лосева // Вестник МГЛУ.* – 2016. – Выпуск 2. – С.200-209; Шарипова Н.Б. *Траектория англоязычных заимствований и их лексическое значение в русском языке (на материале лексикографических источников конца XIX- начала XXI веков): дисс. автореф.* – Челябинск, 2008. – 23 с.; Бўронов Ж. *Инглиз ва ўзбек тиллари қиссий грамматикаси (назарий курс): Чет тиллар педагогика институтлари ва чет тили факултетлари учун дарслик.* – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 284 б.; Эназаров Т.Ж. *Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. док. дисс.* – Тошкент, 2006. – 516 б.; Irisqulov M.T. *Tilshunoslikka kirish: darslik.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 264 b.; Раҳматуллаев Ш. *Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар) (I том).* – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.; Abduazizov A.A. *Tilshunoslik nazariyasiga kirish: oliy oʻquv yurtlarining fil. fak. talabarlari uchun darslik.* – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.; Karimov S.A. *Tilshunoslik nazariyasi fanidan maʼruzalar matni.* – Samarqand, 2012. – 62 b.; Xolmanova Z.T. *Tilshunoslikka kirish: qoʻllanma.* – Toshkent, 2007. – 177 b.; Jamolxonov H. *Hozirgi oʻzbek adabiy tili: Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik.* – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.

³ Smith L.P. *Фразеология английского языка. Перевод А.С.Игнатъева.* – Москва: Государственное Учебно-Педагогическое Издательство Министерства Просвещения РСФСР, 1959. – 208 с.; Виноградов В.В. *Избранные Труды. Лексикология и лексикография.* – Москва: Наука, 1977. – 312 с.; Якунина Т.И. *Фразеосемантическое поле «социальные проблемы» (на*

Tilshunoslikning pragmatika va nutq birliklariga oid muammolar xususida J.R.Syorl, G.N.Lich, S.S.Levinson, P.V.H.Smit, A.Setyaji, R.Choerunnisa, Sh.Safarov, A.Primov, X.Qodirova, S.X.Azimova, N.A.Qazaqova, M.Buzrukova, A.Ataboyev⁴ tadqiqotlarida mulohazalari bayon etilgan.

G'arb va sharq tilshunosligida etimologiya, frazeologiya hamda pragmatika sohalarini bo'yicha bir qator olimlar tomonidan maxsus tahlil qilinganligiga qaramay, ingliz va o'zbek tillarida "xursandchilik" etimonlarining shakl etimoni va ma'no etimoni tavsifi, "xursandchilik" etimonlari qo'llanilgan frazeo-semantik maydon o'rganilishi va frazeologik birliklarning majoziy ma'nosiga ta'siri, nutq faoliyatida frazeo-semantik maydondagi "xursandchilik" etimonlarining pragmatik xususiyatlari haqida tadqiqot olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Termiz davlat universitetining ingliz tili va adabiyoti kafedrasida "Tilning leksik-semantik tizimini chog'ishtirma-tipologik o'rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya" mavzusida olib borilayotgan istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi. (ITA-12-09-2012).

материале фразеологизмов с компонентом-фитонимом русского языка) // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. – 2018. – № 6. – С.288-296; Якунина Т.И. Фразеосемантическое поле "поведение" (на материале фразеологизмов с компонентом-фитонимом английского языка) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2018. – № 9(87). – Ч.2. – С.414-419; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – Москва: Высш. шк., Дубна: Изд. Центр «Феникс», 1996. – 200 с.; Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – Москва: Русский язык, 1984. – 944 с.; Муллагаянова Г.С. Полевые подходы к изучению эмоций в лингвистике // Вестник Челябинского государственного университета. – 2010. – № 29 (210). – Филология. Искусствоведение. – Вып.47.– С.103-106; Уфимцева А.А. Опыт изучения лексики как системы. – М.: Академии наук СССР, 1962. – С.20; Синельникова И.И., Андросова С.А. Состав фразеосемантического поля «эмоциональные состояния человека» (на материале французского языка) // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. – 2014. – № 6 (177). – Выпуск 21. – С.122-127; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие для вузов по спец. – Санкт-Петербург: – Специальная Литература, 1996. – 192 с.; Ябжанова Л.Б. Структурно-семантическая характеристика микрополя «Безумие» в современном английском языке // Вестник ВолГУ. Серия 2: Языкознание. – 2015. – №2. – С.103-108; Чернобай С.Е., Фукова Т.А. Структурно-семантическая характеристика фразеологических единиц английского языка, входящих во фразео-семантическое поле «эмоции» // Серия «Филология. Социальные коммуникации». – 2013. – Том 26 (65). – № 2. – С.325-330; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинградского университета, 1963. – 208 с.; Шерстяных И.В. Фразеосемантическое поле «темпоральность» в современном русском языке // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Philology. Theory & Practice. – 2022. – Том 15. – Выпуск 2. – С.443-448; Быконя В.В., Монастырская Е.А. Структура семантического поля «ум» в Селькупском языке // Вестник ТГПУ. – 2007. – Выпуск 4 (67). – С.76-81; Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике: монография. – Воронеж, 2001. – 191 с.; Mirtojyev M. O'zbek tili semasiologiyasi: monografiya. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 288 b.; Abdurazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish: oliy o'quv yurtlarining fil. fak. talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – 176 b.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili: darslik. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.; Raхmatullaev Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992. – 125 б.; Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi: o'quv qo'llanma. – T.: Navro'z, 2019. – 260 b.; Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – 272 b.; Boltaeva B.I. Ўзбек тили фразеологик birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlili): Филол. фан. б. фалсафа док. дисс. – Самарканд, 2019. – 129 б.

⁴ Searle J.R. A classification of illocutionary acts // Language in society. – 1976. – Vol. 5. – №1. – P.1-23; Leech G.N. Principles of pragmatics. – New York: Longman, 1983. – 250 p.; Levinson S.C. Pragmatics. – New York: Cambridge University Press, 2013. – 420 p.; Peter Wilfred Hesling Smith. Speech act theory, discourse structure and indirect speech acts: work for the degree of doctor of philosophy. – University of Leeds, 1991. – 237 p.; Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film // UNS Journal of language studies. – 2014. – Vol. 03. – №01.– P.14-31; Choerunnisa R. An analysis of speech acts in the dead poets society: a thesis. – University of Yogyakarta, 2015. – 259 p.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент, 2008. – 318 б.; Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Adabiyot uchunlari, 2019. – 97 b.; Azimova S.X. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik hususiyatlari // 2th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts. – Germany, 2021. – B.181-183; Қазақова Н.А. Фафур Фулом насрий асарларининг прагмалингвистик тадқиқи: Филол. фан. б. фалсафа док. дисс. – Наманган, 2019. – 140 б.; Buzrukova M. O'zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari // Xorijiy filologiya – 2020. – №1. – B.108-112; Ataboyev A. O'zbek-ingliz tilida bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari va ularning tarjimada ifodalanishi muammolari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2022. – [1/2]. – B.230-234.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida “xursandchilik” etimolari va ular qo‘llanilgan frazeo-semantik maydonni aniqlash, shuningdek, ularning badiiy asarlar matnlarida pragmatik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikning etimologiya sohasida etimon tushunchasining mohiyati, uning ma’no etimoni va shakl etimonini hamda ingliz va o‘zbek tillarida “xursandchilik” etimolarining tarixiy shakllanish davriy qatlamini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillarida “xursandchilik” etimolari qo‘llanilgan frazeologik birliklar va ularning mazmuni hamda frazeo-semantik maydonni ochib berish;

“xursandchilik” etimolari qo‘llanilgan frazeologik birliklarni ingliz va o‘zbek tillarida chog‘ishtirma aspektidagi tasnifini ishlab chiqish;

badiiy asarlarda “xursandchilik” etimolariga ega frazeologik birliklar qo‘llanilgan nutqiy aktlar va ularning pragmatik xususiyatlarini asoslash va ushbu frazeologik birliklar shakllanishidagi semantik transformatsiya hodisasi asos bo‘lishini dalillash.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida ingliz va o‘zbek tillarida “xursandchilik” tushunchasini anglatuvchi leksemalarning etimolari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillarida “xursandchilik” tushunchasini anglatuvchi leksemalar etimolarining morfologik va etimologik xususiyatlari, ular qo‘llanilgan frazeo-semantik maydon tavsifi hamda badiiy asarlarda nutq faoliyatida ularning pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida etimologik, tavsifiy, tasnifiy (tipologik), tarixiy-qiyosiy, semantik, komponent, statistik, kontekstual, pragmatik tahlil usullaridan chog‘ishtirma aspektida foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“xursandchilik” etimolariga ega frazeologik birliklarning frazeologik butunlik, frazeologik qo‘shilma, frazeologik chatishma hamda idiomatika, idio-frazeomatika, frazeomatikadagi “xursandchilik” etimolari tadqiq etilib, frazeo-semantik maydoni aniqlangan;

frazeologik butunlik, frazeologik qo‘shilma, frazeologik chatishma hamda idiomatika, idio-frazeomatika, frazeomatika turlarida “xursandchilik” etimolariga ega chog‘ishtirilgan frazeologik birliklar aniqlangan;

turli badiiy asarlar nutqiy aktlarida “xursandchilik” etimolari qo‘llanilgan frazeologik birliklarning shakllanishida asos bo‘luvchi semantik transformatsiya hodisasi dalillangan;

ingliz hamda o‘zbek badiiy asarlarida uchraydigan “xursandchilik” etimolarini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarga ega nutqiy harakatlarning lokutiv, illokutiv, perllokutiv aktlar kabi pragmatik xususiyatlari asoslanib, frazeologik birliklarning shakllanishidagi qisman va to‘liq semantik transformatsiya hodisasi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi “xursandchilik” etimolarini frazeologik birliklarda qo‘llanilishi orqali frazeo-semantik maydon aniqlanishi hamda ularning pragmatik xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektida o‘rganish va yechimlarini aniqlash orqali chiqarilgan xulosalar chog‘ishtirma tilshunoslik, leksikologiya va tarjimashunoslik

fanlarini yangi nazariy qarashlar bilan boyitishi va ularning rivojlanishi uchun samarali bo'lgan o'ziga xos ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilishi aniqlangan;

“xursandchilik” etimonlarini ifodalash bilan bog'liq shakl va ma'no etimonlari tavsiflari, frazeologik birliklar turlari va izohlari chog'ishtirib o'rganilishi ingliz va o'zbek tillarida lug'atlar tuzishda manba sifatida foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan;

“xursandchilik” etimonlarining frazeo-semantik maydonda ishtirok etishi asosida nutq faoliyati mazmuni hamda shakllanishidagi pragmatik xususiyatlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyada qo'llanilgan metodlar asoslanganligi, nazariy ma'lumotlar ilmiy manbalardan olingani, mazkur sohadagi dastlabki tadqiqotlarning nazariy xulosalari dissertatsiyaning nazariy jihatiga muvofiqligi, amaliy misollar va tahlillar jarayonida ishonchli leksikografik manbalardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “xursandchilik” etimonlarini chog'ishtirib o'rganishning umumiy nazariyalari sifatida etimologiya, etimon tushunchasi, frazeo-semantik maydon va nutqiy aktlar xususida ma'lumotlar bilan boyitilgani, ingliz va o'zbek tillarida “xursandchilik” etimonlari aniqlangani, ular qo'llanilgan frazeologik birliklar shakllanish jarayonlaridagi transformatsiya hodisasi, frazeo-semantik maydon tavsifi, badiiy asarlarda nutqiy aktlar tarkibida “xursandchilik” etimonlarining pragmatik xususiyatlari ilmiy asoslangani va etimologiya, frazeologiya, chog'ishtirma tilshunoslik, leksikologiya, pragmatika, tarjimashunoslik sohalarining tadqiqot ko'lami kengaytirilgani kelgusi tadqiqotlar uchun muayyan darajada ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi nazariy umumlashma va tahlillardan chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslikka doir tadqiqotlar yaratishda, oliy ta'limda etimologiya, frazeologiya, pragmatika bo'yicha ma'ruza kurslari tashkil etishda, etimologik lug'atlarni takomillashtirishda va darslik, o'quv qo'llanma yaratishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida frazeo-semantik maydonda “xursandchilik” etimonlarining pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

“xursandchilik” etimonlariga ega frazeologik birliklarning frazeologik butunlik, frazeologik qo'shilma, frazeologik chatishma hamda idiomatika, idio-frazeomatika, frazeomatikadagi “xursandchilik” etimonlari tadqiq etilib, frazeo-semantik maydoni aniqlanganligiga oid xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi PZ-20170927147 “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo'lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” nomli amaliy grant loyihasidan foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 11-noyabrdagi 01/4-3099-son ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz va o'zbek tillarida “xursandchilik” etimonlari, ular qo'llanilgan frazeo-semantik maydon tavsifi va ularni qamrab olgan

frazeologik birliklarning turlari va ushbu frazeologizmlarda ishtirok etgan “xursandchilik” etimonlarining pragmatik xususiyatlari orqali inson qiyofasi, fe’l-atvori tasvirida qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo’lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi takomillashtirilgan;

frazeologik butunlik, frazeologik qo’shilma, frazeologik chatishma hamda idiomatika, idio-frazeomatika, frazeomatika turlarida “xursandchilik” etimonlariga ega chog’ishtirilgan frazeologik birliklar aniqlanganligiga oid ilmiy natijalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi mo’ljallangan F3-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 23-avgustdagi 04/1-1547-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbek adabiyotining ko‘p tilli elektron platformasini yaratishda leksemalarning diaxron va sinxron aspektlardagi davriy qatlami yordamida ingliz va o‘zbek tillaridagi mohiyatini ochib berishga erishilgan;

turli badiiy asarlar nutqiy aktlarida “xursandchilik” etimonlari qo’llanilgan frazeologik birliklarning shakllanishida asos bo’luvchi semantik transformatsiya hodisasi dalillanganligi va ingliz hamda o‘zbek badiiy asarlarida uchraydigan “xursandchilik” etimonlarini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarga ega nutqiy harakatlarning lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlar kabi pragmatik xususiyatlari asoslanib, frazeologik birliklarning shakllanishidagi qisman va to’liq semantik transformatsiya hodisasi dalillanganligiga oid ilmiy-nazariy qarashlardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan F3-2016-0908 1165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023-yil 11-sentyabrdagi 458/1-son ma’lumotnomasi). Natijada, fundamental loyiha nazariy qismi frazeo-semantik maydonda “xursandchilik” etimonlari hamda ularning pragmatik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 6 ta respublika anjumanlarida ilmiy ma’ruzalar ko‘rinishida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 16 tasi respublika va xorijiy ilmiy jurnallar hamda to‘plamlarda e’lon qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobativasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tilshunoslikda “xursandchilik” etimolari tadqiqotining nazariy asoslari”** deb nomlanib, to'rtta bo'limni o'z ichiga oladi. Ushbu bobda etimologiya, etimon tushunchasi, frazeo-semantik maydon va pragmatik xususiyatlarni o'rganish muammolari haqida so'z boradi. Mazkur masalalar yuzasidan jahon va o'zbek olimlarining ilmiy va nazariy mulohazalari o'rganiladi. Xususan, *“Tilshunoslikda etimologiya tushunchasi”* deb nomlangan 1.1. bo'limda etimologiyaning paydo bo'lishi, etimologiyani o'rgangan olimlar, etimolog va etimologiyaning predmeti to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

M.M.Makovskiyning qarashlariga ko'ra, “etimologiya” termini qadimgi Yunonistonda paydo bo'lib, uni yunon stoik faylasufi Xrisipp kiritgan va to'g'ridan-to'g'ri “so'zning asl ma'nosi” (yunoncha “*étymos*” to'g'ri + “*logos*” so'zi, ta'limot) degan ma'noni anglatadi⁵. Rimda etimologik masalalarni taniqli olim Markus Terentius Varro o'rgangan, asosan stoiklarning nazariyasi va amaliyotiga asoslangan, birinchi qismi etimologik tadqiqotlarga bag'ishlangan uning asosiy asari *“De lingua Latina”*⁶ hisoblanadi. Shuni e'tirof etish joizki, etimologiya sohasida Varroning qarashlari juda ahamiyatli hisoblanadi va bu Rim ta'limotida nazariy va amaliy jihatlari o'rganilganligi bilan o'z isbotini topadi. M.T.O'Neill so'zlariga ko'ra, Isidor har bir narsani o'rganish uning terminlarining etimologiyasi ma'lum bo'lganda osonroq bo'lishini tushuntiradi, “kelib chiqishi” deganda nafaqat so'zning eng qadimgi shaklini aniqlashni nazarda tutadi, u so'zning eng qadimgi shaklini uning orqasida turgan haqiqatni anglash vositasi sifatida kashf etishni anglatadi⁷. Shuningdek, etimolog o'rganilayotgan tillarning materiallariga tayangan holda so'zning asl shaklini hamda ma'nosini tadqiq etadi va so'zning paydo bo'lganidan hozirgi kunga qadar rivojlanish jarayonlarini izohlaydi.

J.J.Varbotning fikriga ko'ra, etimologiyaning predmeti – bu tilning so'z boyligini shakllantirish manbalari va shakllanish jarayonlarini, shu jumladan, uning mavjud bo'lishining eng dastlabki davrlarini o'rganishdir⁸.

Mazkur bobning *“Etimon etimologiyaning ob'yekti sifatida”* deb nomlangan 1.2. bo'limida etimologiyaning ob'yekti hisoblangan etimon tushunchasi, shakl va ma'no etimonlar haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

⁵ Маковский М.М. Историко-этимологический словарь современного Английского языка. – Москва: Издательский дом «Диалог», 2000. – С.17.

⁶ Liliya T. Leushina. Etymological Explanations in the Ovid's "Fast" (the Origin of the Name of the Roman Holiday Agonalia) // *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 2015. – P.297.

⁷ Michael T. O'Neill. Etymology: Its meaning in language study before 1900 and the English tradition: a dissertation for the degree of doctor of philosophy. – University of Florida, 1976. – P.43.

⁸ Варбот Ж. Ж. ЭТИМОЛОГИЯ // Большая российская энциклопедия. Том 35. – Москва, 2017. – С.489-490.

Soʻzning paydo boʻlishining dastlabki vaqtiga kelsak, tilshunoslar uning moddiy izini etimon deb atashganini “Образ: Исходные когнитивные схемы и этимоны” nomli ilmiy maqolasida qayd etgan M.V.Ilin⁹. Mazkur atama yunon tilida paydo boʻlib, “haqiqiy” maʼnosini ifodalaydi va uning shakllanishi hind-yevropa tillari bilan bogʻlanadi. Shuningdek, G.N.Ivanova-Lukyanovaning taʼkidlashicha, “Soʻzning ushbu uchta hayotiy daqiqalaridan – ildiz, soʻzning morfemalar bilan toʻldirilishi va boshqa soʻzlar bilan bogʻliqligi – A.F.Losev “soʻzning embrioni” deb ataydigan va har qanday soʻzda, qaysi morfemik muhitda boʻlishidan qatʼi nazar, oʻsib chiqadigan etimonga alohida ahamiyat beriladi. U soʻz tugʻilganda olgan dastlabki energiyasini olib yuradi va hayoti davomida uni yoʻqotmaydi”¹⁰. Bu naqta nazar bilan olim soʻz tugʻilganda aniqrogʻi paydo boʻlganda soʻzning “embrioni” yaʼni etimon u tomonidan qabul qilingan dastlabki energiyani oʻzida olib yurishini ifodalaydi. M.T.Irisqulovning “Etimologiya soʻzning har ikki tomonini, yaʼni shakli va maʼnosini hisobga oladi”¹¹ degan fikrlaridan maʼlum boʻladiki, etimonning shakl etimoni (ifoda plani) va maʼno etimoni (mazmun plani) mavjudligidan dalolat beradi. A.A.Ufimseva ham lisoniy belgi sifatida etimolni fonemik ravishda ajratilgan tovushlar zanjirlarining birligi va maʼlum bir aqliy tarkib sifatida izohlaganini Y.V.Kapranov taʼkidlaydi¹².

Bobning “*Frazeo-semantik maydon tushunchasi talqini*” deb nomlangan 1.3. boʻlimida maydon tushunchasi bilan birga frazeo-semantik maydon tushunchasi, uning hududlari hamda frazeologik birliklar xususidagi masalalar yoritilgan. Maydon va frazeo-semantik maydonda yadro, markaz, yaqin periferiya, uzoq periferiya va ekstremal periferiyalar aniqlanishi izohlanadi. Frazeo-semantik maydonning yadrosida ideogramma frazeologik birliklarning elementar maʼnosi sifatida oʻrganiladi.

Y.Trir semantik yoki tushuncha maydoni ostida “konseptual soha”, “tilning konseptual mazmun doirasi” degan maʼnoni anglatishini, L.Vaysgerber “tilning konseptual tarkibining bir qismi”, V.Portsig “maʼnolarning muhim bogʻlanishlari”¹³ tarzida bergan taʼriflarini A.A.Ufimseva tasvirlab beradi. A.Abdudzizovning maydon haqida quyidagi fikrlarini keltirish oʻrinlidir: “Semantik yoki tushuncha maydoni maʼnolari bilan bogʻlangan soʻzlarni birlashtiradi. Bunday soʻzlar, odatda, bir leksik-semantik guruhni tashkil qiladi”¹⁴. Mazkur olimlarning qarashlaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maydon tushunchasi umumiy xususiyatga ega boʻlgan, mazmunan oʻzaro aloqador soʻzlar guruhidir.

L.B.Yabjanovanning quyidagi taʼrifida frazeo-semantik maydon izohlanadi: “Frazeo-semantik maydon – mikromaydonlardan tashkil topgan umumiy denotatsiyaga ega frazeologik birliklar majmui, ularning har biri semantik jihatdan

⁹ Ильин М.В. Образ: Исходные когнитивные схемы и этимоны // МЕТОД: Московский ежегодник трудов из обществоведческих дисциплин. – 2018. – №8. – С.13.

¹⁰ Иванова-Лукьянова Г.Н. Энергемы слова в учении А.Ф.Лосева // Вестник МГЛУ. – 2016. – Выпуск 2.– С.201.

¹¹ Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish: darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B.96.

¹² Капранов Я.В. Витлумачення терміна “етимон” як знакового утворення правового стану // Серія “Філологічна”. – 2016. – Випуск 61. – С.66.

¹³ Уфимцева А.А. Опыт изучения лексики как системы. – М.: Академии наук СССР, 1962. – С.20.

¹⁴ Abdudzizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish: oliy oʻquv yurtlarining fil. fak. talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 69.

yaqin frazeologik birliklarni birlashtirgan, ularni birlashtiruvchi elementlarga va ma'lum differensial xususiyatlarga ega bo'lgan frazeo-semantik guruhlarni o'z ichiga oladi"¹⁵. Ko'rinadiki, frazeo-semantik maydon mazmunan bir-biriga o'xshash frazeologik birliklarni o'z ichiga oladi, shu bilan birga, ushbu maydon tarkibi o'rganilganda farqli xususiyati bilan ajralib turuvchi frazeologik birliklar ham mavjud bo'ladi.

Z.D.Popova va I.A.Sternin maydon markazi haqida so'z yuritar ekan, yadroda markaz aniq ajralib turishini, yadro markaziga kirgan leksemalarning chastotasi boshqa birliklarning chastotasiga qaraganda ancha yuqori ekanligini ta'kidlashadi¹⁶. "Periferiya esa yadroda mavjud bo'lgan xususiyatlarning to'liq emasligi bilan ajralib turadi va shunga mos ravishda periferiya yadrodan qanchalik uzoqda bo'lsa, maydonda asos sifatida qabul qilingan xususiyatlar shunchalik kam namoyon bo'ladi"¹⁷, deb maydon periferiyasini G.S.Mullagayanova ta'riflaydi.

Frazeo-semantik maydon ma'lum bir tushunchaga oid maydonni aks ettiruvchi frazeologik birliklar bilan ifodalanganligi sababli frazeologiya ahamiyatli sanaladi. Umuman olganda, frazeologik birliklarning 2 xil tasnifi ya'ni V.V.Vinogradovning tasnifi – frazeologik qo'shilma, frazeologik butunlik va frazeologik chatishma turlari, shuningdek, A.V.Kuninning tasnifi – idiomatika, frazeomatika va idio-frazeomatika turlari o'rganiladi.

Ushbu bobning 1.4. bo'limi "*Frazeo-semantik maydonda pragmatik xususiyatlarning tavsifi*" deb nomlanib, unda pragmatika, intensional tahlil, nutqiy akt, uning amalga oshish bosqichlari misolida lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar hamda transformatsiya hodisasi tasvirlab berilgan.

Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganilishini Sh.Safarov "Pragmalingvistika" monografiyasida aks ettiradi¹⁸.

"Nutqiy aktning bu turdagi vazifalarini aniqlash uchun intensional tahlilga, ya'ni nutqiy harakat maqsadini aniqlashga yo'naltirilgan tahlilga murojat qilmoq kerak. *Intensional tahlil*da kommunikativ jarayonda voqelanadigan nutqiy faoliyatning so'zlovchi maqsadi, istagi bilan bog'liq tomonlari o'rganiladi, – deydi Sh.Safarov va Kiyev universitetining professori Oleg Georgeyevich Pochepsovning fikriga qo'shilgan holda shunday davom etadi, – "nutqiy harakat va bu harakat vositasida voqelanadigan maqsad so'zlovchi ko'zlagan asosiy maqsadga erishishning faqatgina bir bosqichidir". Shuning uchun ham olim umumiy intensional tahlilni ikki qismga ya'ni "boshlang'ich intensional (maqsad)" va "natijaviy intensional"ga ajratishni taklif qiladi"¹⁹.

¹⁵ Ябжанова Л.Б. Структурно-семантическая характеристика микрополя «Безумие» в современном английском языке // Вестник ВолГУ. Серия 2: Языкознание. – 2015. – №2. – С.104.

¹⁶ Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике: монография. – Воронеж, 2001. – С.126.

¹⁷ Муллагаянова Г.С. Полевые подходы к изучению эмоций в лингвистике // Вестник Челябинского государственного университета. – 2010. – № 29 (210). – Филология. Искусствоведение. – Вып.47. – С.105.

¹⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент, 2008. – Б.76.

¹⁹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент, 2008. – Б.80.

S.X.Azimova nutqiy akt haqida quyidagicha qayd etadi: “Nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko‘ra so‘zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi”²⁰. R.Choerunnisa ham shunday deydi: “Nutq harakatlarini bajarishda Yule ham uchta bog‘liq harakat mavjudligini taklif qilgan. Ular lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlardir”²¹. Illokutiv aktlarni Arso Setyaji niyat qilish harakati sifatida ta‘riflab, bu niyatni o‘z ichiga olgan harakatlar illokutiv aktlar ekanligini tushuntiradi²². “Nutqiy faoliyatning ta‘sir o‘tkazish bosqichi perlokutiv akt nomini olgan. Demak, perlokutsiya tinglovchi ongiga, his-tuyg‘ulariga va xatti-harakatiga ta‘sir o‘tkazish harakatidir”²³, – deb talqin etadi Sh.Safarov.

B.I.Boltayeva transformatsiya hodisasiga quyidagicha ta‘rif beradi: “Ilmiy manbalarda transformatsiya (lot. transformatio-o‘zgarish)ga asosiy sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalari asosida o‘zgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish, boshqa manbalarda esa asos lisoniy modeli (til strukturasi) asosida ikkilamchi lisoniy shaklning yaratilishidir”²⁴.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida “xursandchilik” etimonlarining frazeo-semantik maydon tadqiqi”** deb nomlanib, uchta bo‘limdan tashkil topgan. Ushbu bobda ingliz va o‘zbek tillariga oid “xursandchilik” leksemasiga oid etimonlar aniqlanib, ularning etimologiyasi o‘rganilgan. Mazkur “xursandchilik” etimonlari qo‘llanilgan frazeologik birliklardan iborat frazeo-semantik maydon tadqiq etilib, uning yadrosi, markazi, yaqin periferiyasi, uzoq periferiyasi va ekstremal periferiyasi tahlil qilingan. Bobning *“Ingliz tilida “xursandchilik” etimonlari qo‘llanilgan frazeo-semantik maydon tasviri”* deb nomlangan 2.1 bo‘limida ingliz tiliga oid “xursandchilik” leksemasiga oid etimonlar tadqiq etilib, ularning shakl va ma‘no etimonlari izohlangan. “Xursandchilik” etimonlari qo‘llanilgan frazeologik birliklardan iborat frazeo-semantik maydon leksemalari aniqlanganda bir qator mikromaydonlarga bo‘linishi yuzaga chiqdi: *glad, laugh, grin, smile, cheer, happy, joke, fun, content, joy, pleasure, amused*. Ushbu mikromaydonlar quyidagi frazeologik birliklarni o‘z ichiga oladi:

Glad – be glad to see the back of someone, give someone the glad hand, in your glad rags, I’m glad to say (that);

Laugh – laugh all the way to the bank, laughed out of court, laugh like a drain, laugh on the other side of your face, have the last laugh, laugh up your sleeve, a barrel of laughs, a bundle of laughs, enough to make a cat laugh, kill yourself laughing, good for a laugh, the laugh is on me (or you or him, etc.), a laugh a minute, laugh yourself silly (or sick), laugh someone or something to scorn, play something for laughs, no laughing matter, laugh in somebody’s face, laugh your socks off, laugh till/until you cry, laugh your head off, not know whether to laugh or

²⁰ Azimova S.X. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik hususiyatlari // 2th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts. – Germany, 2021. – B.182.

²¹ Choerunnisa R. An analysis of speech acts in the dead poets society: a thesis. – University of Yogyakarta, 2015. – P.8.

²² Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film // UNS Journal of language studies. – 2014. – Vol. 03. – №01. – P.18.

²³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент, 2008. – Б.82.

²⁴ Болтаева Б.И. Фразеологик birliklarning semantik transformatsiyasi // Journal of Innovation in Primary Education. – 2020. – №1. [Elektron manba] URL: <https://pshedu.jspi.uz/index.php/primedu/article/view/132>.

cry, you have/ you've got to laugh, do something for a laugh/ for laughs, have a (good) laugh (about something);

Grin – grin like a Cheshire cat, grin from ear to ear, grin and bear it, wipe the grin off somebody's face;

Smile – smile from ear to ear, wreathed in smiles, all smiles;

Cheer – cheer someone to the echo, cheap and cheerful, of good cheer, three cheers for;

Happy – happy as a clam, happy as a lark, happy as a pig in muck, happy as a sandboy, happy as Larry, happy hunting ground, many happy returns (of the day), a happy event, a/the happy medium, play happy families;

Joke – the joker in the pack, get (or be) beyond a joke, the joke is on someone, something is no joke, make a joke of something, take a joke, joking apart/aside, you are joking/ you must be joking;

Fun – a bundle of fun, see the funny side of something, poke fun at, fun and games, make fun of somebody/something, funnily enough, funny ha-ha, funny peculiar;

Content – to your heart's content;

Joy – full of the joys of spring, wish someone joy, jump for joy, somebody's pride and joy;

Pleasure – at Her (or His) Majesty's pleasure, pleased (or proud) as Punch;


Amused – keep somebody amused.

Mazkur frazeologik birliklarning izohlari, o'zbek tilida tarjimalari va V.V.Vinogradov tasnifi hamda A.V.Kunin tasnifi asosida frazeologik birliklarning turlari dissertatsiyada jadvallar orqali aks ettirilgan.

Ushbu frazeologik birliklardan tashkil topgan frazeo-semantik maydon "xursandchilik" ma'nosini ifodalashiga ko'ra yadro, markaz, yaqin periferiya, uzoq periferiya, ekstremal periferiyalarga ajratilgan holda shar shaklida tahlil qilinadi. Ushbu hududlarni qamrab olgan frazeologik birliklarda "xursandchilik" etimonining ahamiyati markazdan ekstremal periferiyaga qadar zaiflashib boradi (1-rasmga qarang).

Frazeo-semantik maydonning yadrosi frazeologik birlikning neytral ekvivalenti sifatida ideogramma tushuniladi va ideogrammaning xarakterli semantik xususiyati "xursandchilik" arxisemasi hisoblanadi. Ushbu frazeo-semantik maydon yadrosi *glad, laugh, grin, smile, cheer, happy, joke, fun, content, joy, pleasure, amused* singari frazeologik birliklarning ideogrammalarini qamrab oladi.

Periferiya tarkibida mavjud bo'lgan frazeologik birliklar yadroda mavjud bo'lgan xususiyatlarning to'liq emasligi bilan ajralib turib, shunga mos ravishda periferiya yadrodan qanchalik uzoqdaligiga ko'ra "xursandchilik" ma'nosi yaqin, uzoq va ekstremal periferiyalarda shunchalik kam namoyon bo'ladi. Ushbu frazeo-semantik maydon hududlarga bo'linib olindi. Shu orqali frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilgan "xursandchilik" etimonlarning ma'nosi asosan saqlab qolinganligi markaz va yaqin periferiyada, qisman ma'nosining saqlanganligi uzoq periferiyada va umuman boshqa ma'noning ifodalanishi esa ekstremal periferiyada tasvirlangan.



1-rasm. Ingliz tilida “xursandchilik” etimonlari qo‘llanilgan frazeo-semantik maydon tasviri²⁵.

Mazkur bobning “O‘zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo‘llanilgan frazeo-semantik maydon tasviri” deb nomlangan 2.2. bo‘limida o‘zbek tiliga oid “xursandchilik” tushunchasini anglatuvchi leksemalar etimologik tahlil qilinib, ular ishtirok etgan frazeo-semantik maydon o‘rganilgan va uning bir qator mikromaydonlari aniqlangan: *xursand, quvonch, zavq, xushvaqt, chog‘, vaqtixushlik, sevinch, baxt, kulgi, omad, hazil, iqbol, shodlik*. Ushbu mikromaydonlar quyidagi frazeologik birliklarni o‘z ichiga oladi:

Xursand – xursandlig(i) ich(i)ga sig‘maydi;

Quvonch – quvonchi ichiga (yoki diliga) sig‘maydi, quvonch(i) olamga sig‘maydi, ko‘zi quvnamoq, ko‘zlari quvonchdan porlab ketmoq;


Zavq – zavqini keltirmoq;

Xushvaqt – xushvaqt bo‘ling;

Chog‘ – dimog‘i chog‘, kayfi chog‘, ko‘ngli chog‘, chog‘ bo‘lib turmoq, vaqti chog‘, vaqti chog‘lik qilmoq, kayfi chog‘lik qilmoq;

Vaqtixushlik – vaqtixushlik qilmoq;

²⁵ Muallif tomonidan yaratilgan.



2-rasm. O'zbek tilida "xursandchilik" etimonlari qo'llanilgan frazeo-semantik maydon tasviri²⁶.

Sevinch – sevinch(i) ich(i)ga sig'maydi, sevinch(i) yurag(i)ga sig'maydi, sevinch(i)ni yurag(i)ga sig'dirolmaslik, sevinch-quvonch(i) ich(i)ga sig'maydi, o'zida yo'q sevinmoq;

Baxt – baxti kulmoq, baxti ochilmoq, baxtingni bersin, baxti qora (yoki qaro), baxt qushi (baxti humoyun) boshiga qo'ndi, baxtdan ko'rdim (baxtimdan ko'raman), baxti bog'lanmoq, baxtiga kuya tushmoq, baxti chopmoq, baxtash tavakkal;

Kulgi – kulgilikka olmoq;

Omadi – omad qushi boshiga qo'ndi, omadi gap, gapning omadi, omad(i) kelmoq, omad(i) yurishmoq, omadi ketmoq, omadi kulib boqmoq;

Hazil – hazilakam emas, hazil (gap) emas;

Iqbol – iqboli chopmoq;

Shodlik – shodlig(i) ich(i)ga sig'maydi.

Ushbu frazeologik birliklarni o'z ichiga olgan frazeo-semantik maydon "xursandchilik" ma'nosini ifodalashiga ko'ra yadro, markaz, yaqin periferiya, uzoq periferiya, ekstremal periferiyalarga ajratilgan holda shar shaklida tahlil qilinganda frazeologik birliklarda "xursandchilik" etimonining mohiyati markazdan ekstremal periferiyaga qadar kuchsizlanishi va yo'qolib borishi kuzatiladi (2-rasmga qarang).

²⁶ Muallif tomonidan yaratilgan.

Frazeo-semantik maydon yadrosi *xursand, quvonch, zavq, xushvaqt, chog', vaqtixushlik, sevinch, baxt, kulgi, omad, hazil, iqbol, shodlik* singari frazeologik birliklarning ideogrammalarini tashkil etadi.

Frazeo-semantik maydon markazi yadroni ifodalovchi “xursandchilik” semalariga ega frazeologik birliklarni o‘z ichiga oladi, xususan, ulardan bir nechtasining izohi quyidagicha:

Quvonchi ichiga (yoki diliga) sig‘maydi frazeologik birligi “juda ham xursand, g‘oyat shod”²⁷ ma‘nolarini ifodalaydi. Bu iboralarning tarkibida ishtirok etgan so‘zlarning umumiy ma‘nosi ko‘chma ma‘noga qo‘shilib ketishi natijasida ma‘no anglashilgani bois V.V.Vinogradov tasnifiga ko‘ra frazeologik butunlik, A.V.Kunin tasnifiga asoslanib idiomatika turiga kiritish mumkin.

O‘zida yo‘q sevinmoq frazeologik birligi “nihoyatda, juda ham xursand bo‘lmoq”²⁸ ma‘nosini ifodalaydi. Ushbu iborada *o‘zida yo‘q* ko‘chma ma‘noda qo‘llanilib, *sevinmoq* o‘z ma‘nosini saqlab qolganligi uchun frazeologik qo‘shilma hamda frazeomatika sanaladi.

Shuningdek, frazeo-semantik maydon periferiyalari, jumladan, yaqin periferiya, uzoq periferiya, ekstremal periferiyalarni tashkil qiluvchi frazeologik birliklar ham V.V.Vinogradov tasnifi hamda A.V.Kunin tasnifiga asoslanib turlarga bo‘lingan va izohlangan.

“Ingliz va o‘zbek tillarida frazeo-semantik maydondagi “xursandchilik” etimonlarining chog‘ishtirma talqini” deb nomlangan 2.3. bo‘limda ingliz va o‘zbek tillarining “xursandchilik” leksemalari – etimonlarining etimologik, morfologik xususiyatlari hamda ushbu leksemalar qo‘llanilgan frazeo-semantik maydon chog‘ishtirib tahlil qilingan va statistik holda o‘rganilgan.

Ingliz tilida “xursandchilik” etimonlari lotin, qadimgi ingliz, qadimgi fransuz, german, yuqori german va grek tillaridan shakllangan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi “xursandchilik” etimonlari arab, tojik, qadimgi turkiy, eski o‘zbek, tojik-arab, arab-tojik, tojik-qadimgi turkiy va arab-qadimgi turkiy tillaridan shakllangan. Etimologik tahlil natijalariga tayangan holda ingliz va o‘zbek tilining “xursandchilik” leksemalari – etimonlarining tillar kesimida shakllanishi 1-jadval orqali (taqriban) foiz hisobidagi miqdorlar bilan ifodalanadi.

1-jadval.

“Xursandchilik” etimonlarining chog‘ishtirilayotgan tillar kesimida shakllanishining etimologik tahlili²⁹.

“Xursandchilik” leksemalarining etimonlari					
Ingliz tilida umumiy leksemalar soni 63 ta			O‘zbek tilida umumiy leksemalar soni 62 ta		
Tillar	Leksemalar miqdori	Qism (%)	Tillar	Leksemalar miqdori	Qism (%)
Lotin	23	37 %	Arab	17	27 %


²⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати (5-жилд). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 2006. – Б.362.

²⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати (3-жилд). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 2006. – Б.470-471.

²⁹ Muallif tomonidan yaratilgan.

